

ALISHER NAVOIY “XAMSA”NING HAMD VA NA’T BOBLARIDA BADIY SAN’ATLARNING QO’LLANILISHI

Sharofova Maxliyo Shokirjon qizi
O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sharqning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning “Xamsa” asari va uning tarkibidagi hamd va na’t boblarda qo’llanilgan badiiy san’atlarning tahliliga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi doston tarkibidagi hamd va na’tlarni tahlil qilish orqali ularning dostondagi o’rnini belgilash hamda sharq klassik adabiyoti na’munalarini hamd va na’tlarsiz to’laqonli tushunib bo‘lmasligini isbotlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: hamd, na’t, lafziy san’atlar, ma’naviy san’atlar, takrir, mulamma, tarse’, tazod, tajziya

THE USE OF FINE ARTS IN THE CHAPTERS OF PRAISE AND NAT OF ALISHER NAVOI “KHAMSA”

ABSTRACT

This article focuses on the analysis of "Khamsa" by Alisher Navoi, the renowned scholar of the East and the artistic elements used in two chapters of Khamsa (Hamd and Na`t) . The purpose of the study is to determine the role of the two chapters in the epic by thorough analysis, and to prove that it is impossible to fully understand the samples of the Eastern classical literature without Hamd and Na`t (roughly translated as Praise).

Key word: praise, nat, verbal arts, spiritual arts, takreer, mulamma, tarse’, tazad, tajziya

Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan asarlarning nodirligi, ularning asrlar osha o‘qirmanni hayratga solayotganligi hamda shakl va mazmun go‘yo bir-biriga singib, yaxlit kompozitsiya hosil qilishining kaliti bu asarlar butun borliqni yaratgan Alloh taologa hamd aytish bilan boshlanishidadir. Darhaqiqat, mumtoz adabiyotimizning bebaho durdonalarini hamdlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. So‘z mulkining sultonii Alisher Navoiyning ham har bir asari ibtidosi Yaratganga hamd bilan boshlanadi. Hazrat Navoiyning badiiy mahorati nafaqat asarlaridagi sujet rang-barangligi, betakrorligi, balki g‘azallarida qo’llanilgan badiiy san’atlar bilan ham belgilanadi.

“Hayrat ul- abror” 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shimdan muqaddima 21 bobni o‘z ichiga oladi. Dostonning birinchi bobi

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ (“Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman”) oyatining shoirona talqiniga bag‘ishlanganligi uchun “basmala bobi” deb ham ataladi:

Bismillahir rohmanir rohim

Rishtag‘a chekti necha durri yatim.¹

Bu bob nafaqat “Hayrat ul-abror”, balki umuman “Xamsa” uchun ham kirish vazifasini o‘taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlanı uchratmaymiz. Salaflarda “Xamsa”ni بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ oyati bilan boshlash an’ana tusiga kirgan bo‘lib, Nizomiydan boshlab barcha xamsanavislari o‘z so‘zlarini ana shu oyat bilan boshlaganlar. Faqat Navoiyga kelibgina bu bob mustaqil basmala bobiga aylandi. Hazrat Navoiy dastlabki 12 baytni بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ ning umumiylaysa bag‘ishlaydi: oyat o‘z shakli va mohiyatiga ko‘ra butun Borliqning nizomini ushlab turuvchi “jahon rishtasi”, tiriklik assosi bo‘lmish “jon rishtasi”, abadiylik xazinasiga eltuvchi sinoatli tasbih, ham dunyo, ham oxirat saodatini sayd ctuvchi arqon, obihayot oquvchi ariq, Arshi a’loni yorituvchi qandilga o‘xshatiladi. Keyingi baytlarda vahdat (Birlik, A lloha taolonining Bir-u Borligi) xazinasiga eltuvchi yo‘l sifatida ta’riflangan “Bismilloh”dagi har bir harfga ikki toifa - “ahli qabul” (qabul etganlar) va “ahli rad” (inkor qilganlar) uchun alohida-alohida ma’no yuklatiladi. Dastlab rad etuvchilarga to‘xtalinar ekan, ushbu jumladagi har bir harfning bu toifa tarfdorlarilarini jazolantirishga xizmat qildirilganligini ko‘ramiz. س - “sin” harfi haqida gapirilganda, uning shakli unhung balig‘ining umurtqa suyagidagi arradek bo‘lib, م - “mim” harfi ilon nafasidek o‘t qoldirib, yo‘l boshida og‘zini ochgan holda yotadi, degan tashbihdan foydalaniadi:

«Bo»si ibedin urar avval salo,

«Yo»ki degay lo ne bo‘lur juz balo.

«Sin»i nahang arqosining arrasi,

Yuz kemaning ofati har parrasi.

«Sin» bila «mim»i yo‘lida ko‘p humum,

Yo‘li humum aningu yeli samum.

«Mim»i yiloni damidin o‘t sochib,

Yo‘l boshida yotibon og‘zin ochib,²

¹ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. Муқаммал асарлар туплами. 20 жилдлик. - Т.: Фан, 1993. 7-жилд

² Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. Муқаммал асарлар туплами. 20 жилдлик. - Т.: Фан, 1993. 7-жилд

Ikkinci bob Xoliq, ya’ni Alloh hamdiga bag‘ishlanadi. Mazkur bobda shoir butun borliqni yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o‘simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bog‘lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlaydi. Alisher Navoiy “Uning zoti lutf va safodan iborat, lekin vafo isi unga begona” degan fikrlarni ilgari surar ekan, bu o‘rinda tasavvuf ta’limoti asosida fikr yuritilayotganligi ma’lum bo‘ladi.

Navoiy asarlarining til boyliklarini sinchiklab o‘rgangan tilshunos olim B. Vafoyev alohida e’tiborga sazovor bo‘lgan statistik ma’lumotlarni kyeltiradi. Alisher Navoiyning turkiy tildagi shye’rlari 104 ming misradan ortiq ekan. Yana forsiy tilda o‘n ming misra she’ri bor. Nasriy asarlari, maktublari – hammasining so‘z boyligini hisoblab chiqqan olim: «Alisher Navoiy asarlarini taxminan 1 million 378 mingdan ortiq so‘z tashkil qiladi», - deb yozadi.³ Albatta, bu so‘zlarning katta bir qismi asardan asarga o‘tib, ko‘p marta takrorlanadi. Ammo «so‘zlik» deb ataladigan va takrorlari hisobga olin-maydigan so‘z boyliklari bor. B.Bafoyev Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan so‘zlar soni 26000 dan ortiq ekanini aniqlagan⁴. Alisher Navoiy ijodi bu qadar ulkan til boyliklarini o‘zida jamlagani – jahon tillari tarixida kam uchraydigan mustasno hodisadir. Ummonday cheksiz bu ko‘lam, avvalo, turkiy tillar va ularning turli shevalaridagi til boyliklarini jamlagani tufayli paydo bo‘lgan. Ayni vaqtida, Navoiy o‘sha davrda madaniy doiralar yaxshi tushunadigan arab va fors tili boyliklaridan ham keng va dadil foydalangan⁵. Alisher Navoiy tilning barcha birliklari va vositalaridan, jumladan, takroriy so‘zlardan unumli, o‘rinli va yuksak mahorat bilan foydalangan. Takroriy so‘z ayni bir so‘zni takror holda qo‘llash bilan tuzilib, ko‘plik, davomlilik kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘z, so‘zning takroriy shakli. Hukm ayladi mulki ishq shohi: “Kim dahrni moh to ba mohi...” She’riy misradagi moh to ba mohi takror so‘zi “oydan-oygacha; ko‘p muddat, uzoq vaqt” ma’nolarini anglatadi “Xamsa”ning boshqa dostonlarida ham ko‘h to ko‘h variantida ham uchraydi. Har dam yiqilurg‘a jismi moyil, Hushi dog‘i lahza-lahza zoyil, Topib anga jismi notavon za’f, Ko‘nglida dohi zamon-zamon za’f. [3; 55] Birinchi baytdagi lahza-lahza ravishi takror asosida yasalgan bo‘lib, “vaqt-vaqt bilan, har doim” ma’nolarida qo‘llangan. Ikkinci baytdagi zamon-zamon takror so‘zi “damba-dam, tez-tez” ma’nosini anglatadi.

Hazrat Navoiyning “Xamsa” asari tarkibidagi ikkinchi doston – “Farhod va Shirin” 54 bobni o‘z ichiga olgan bo‘lib, dastlabki boblari hamd bilan boshlanadi. Ulug‘ mutafakkir an’anaga muvofiq:

³ Бафоев. Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.

⁴ Бафоев. Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983

⁵ Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005.

Bihamdk fath abvob ul-maoniy
Nasib et ko‘ngluma fath etmak oni⁶

ya’ni ma’nolar xazinasining ochilishi sening hamding (maqtoving) bilandir, ma’nolar xazinalarini ko‘zimga olib ber va ularni zabt etishni nasib qil⁷, degan fikrlar bilan boshlaydi. Shoir bu bayt bilan yaratgandan bir madad bo‘lsa-yu, qalami yozilajak shavq dostonining ma’nolar xazinasiga kalit bo‘lsin, degan fikrlarni ilgari suradi. Bundan tashqari, akademik Aziz Qayumov o‘zining “Farhod va Shirin sirlari” monografiyasida shunday yozadi: “Bu baytning birinchi misrasi arab tilida yozilgan. Ikkinci misra o‘zbek tilidadir... Birinchi misradagi “fathu” (“ochaman”) ikkinchi misradagi “fath” (“ochmoq”, “egallamoq”) bilan so‘z o‘yini orqali bog‘langan. Shoir o‘sha eshiklar qulfini o‘z ko‘ngliga ochiq bo‘lishini tilaydi. Bu eshikni ochmoq uchun o‘z qo‘lining kaliti bo‘lishligini, shu kalit bilan hamma eshiklarni ochishini va tilagan hamma narsalarining unga nasib bo‘lishini istaydi...”⁸

O‘zbek adabiyotida badiiy san’atlar ikki asosiy turga: lafziy va ma’naviyga bo‘linadi. “Farhod va Shirin” dostonining hamd qismida shoirning fikrlariga hamohang ravishda, baytlarning ta’sir ko‘lamini kengaytirish maqsadida har ikki turdagи badiiy san’atlardan o‘rinli foydalanilgan. Asarning dastlabki baytlarida qo‘llanilgan “fath” so‘zi baytning ikki misrasida takror qo‘llanilib takrir san’atini yuzaga keltirgan. Shu jumladan, dostonning dastlabki misrasi arab tilida, keyingi qismi esa turkiy tilda yozilganini hisobga olsak, bu baytda mulamma’ san’ati ham qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz. Mulamma’ badiiy san’ati xususida Atoulloh Xusayniy “Badoye us-sanoye” asarida ushbu fikrlarni keltiradi: “Mulamma’ andin iboratdurkim, she’rning bir qismi bir tilda, boshqa bir qismi o‘zga tilda bo‘lur. Bu san’atning mashhuri uldurkim, bir misrayi arabcha va ikkinchi misrayi forscha bo‘lur”.⁹

Nima ko‘p olmog‘imga mone’ etma,
Necha ko‘p olg‘onimga qone’ etma.

Tarse’ san’ati qo‘llangan yuqoridagi baytda Hazrat Navoiy Yaratganga iltijo ila ma’nolar xazinasidan qancha olsa ham, mone’ etmasligini so‘rab, qancha ko‘p undan bahramand bo‘lsa-da, uni qondirmasligini ifodalamoqda. Tarse’ning lug‘aviy ma’nosи “gavharni ipga tizish”dir. Istiloh sifatida esa ikki jumla yoki misradagi so‘zlarning bir-biri bilan vaznda, ham qofiyada barobar kelishini bildiradi. Tarse’ lafziy san’at doirasiga kirsa ham, nihoyatda murakkab usullardan biri bo‘lib kelsa-da, biroq ba’zan

⁶Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Т.: Фан, 1978-1988.

⁸ Каюмов А. Фарход ва Ширин сирлари: эзгулик ва севгини улуғловчи мотивлар. –Т. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.

⁹ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ ус-саноиъ. Тошкент:Faafur Fulom, 1981. – 92-6.

so‘z birikmalarini sifatida ham mos tushishi mumkin.¹⁰ Quyidagi baytda ham aynan shu xususiyatlardan mavjud bo‘lgani uchun tarse’ san’atiga asos bo‘lib xizmat qilgan:

Gadolarg‘a ↓	dag‘i ↓	andin ↓	ato ↓	ber ↓
G‘anilarg‘a	dag‘i	oni	Tuto	Ber

Ma’naviy ya’ni she’rning ma’nosi bilan bog‘liq, uning badiiyatini olib beruvchi san’atlarning eng mashhurlaridan biri tazod san’atidir. “Tazod” so‘zi “zid qo‘yish”, “qarshilantirish” ma’nolarini ifodlaydi. Shu so‘z bilan ataluvchi she’riy san’at esa baytda ma’no jihatidan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsolar, lavhalar yaratilshni nazarda tutadi.¹¹ “Farhod va Shirin” asarining hamd qismida kelgan quyidagi baytlarda “shoh” hamda “qul”, keyingisida esa “oshkoro” hamda “nihon” so‘zlar ushbu ma’noviy san’atni hosil qilishda asos bo‘lib hizmat qilgan::

Shah olsa dog‘i qilsun toji torak,
Qul olsa ham anga bo‘lsun muborak
Alarg‘a oshkorovu nihoni,
Ko‘z ichra ashkdek asratqil oni. (tazod)

“Tajziya andin iboratturkim, bir baytda ikki kiritma saj’ni ul tarzda berurlarkim, birinchi saj’dagi fosilaning oxirgi harfi anga muxolif, ikkinchi saj’g‘a muvofiq bo‘lur, ya’ni birinchi misraning birinchi yarmin ikkinchi misraning birinchi yarmig‘a bir sa’j bila musajja’ qilurlar va birinchi baytning ikkinchi yarmin ikkinchi misraning ikkinchi yarmig‘a fosilaning oxirgi harfi raviy bila muvofiq bo‘lgan ikkinchi bir sa’j bila musajja eturlar...”¹² Ushbu badiiy san’at baytning shakliga bog‘liq bo‘lib, birinchi va ikkinchi misrada o‘zaro qofiyadosh so‘zlar qo‘llaniladi:

Ani sindurg‘on elni qil shikasta,
Xujasta ko‘rgan elga tut xujasta

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Т.: Фан, 1978-1988.
2. Қаюмов А. Фарҳод ва Ширин сирлари: эзгулик ва севгини улуғловчи мотивлар. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.

¹⁰ Исҳоқов Й. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент: “Зарқалам” нашриёти, 2006. –80-6.

¹¹ Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. –125-6.

¹² Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ ус-санойиъ. Тошкент:Faafur Fулом, 1981. – 92-6.

3. Атоуллоҳ Ҳусайнин. Бадойиъ ус-санойиъ. Тошкент: Гафур Гулом, 1981.
4. Исҳоқов Й. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент: “Зарқалам” нашриёти, 2006.
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.